

## AGRESSIVLIKNI YUZAGA KELISHIGA SABAB BO'LUVCHI OMILLAR

*Avalova Inobat Xolmatovna**Jizzax shahar 28-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada agressivlik tushunchasining psixologik mazmuni, uning kelib chiqish sabablari hamda shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Agressiv xulq-atvorning biologik, psixologik va ijtimoiy omillari, oilaviy muhit, tengdoshlar ta'siri, ommaviy axborot vositalari hamda stressli vaziyatlarning roli ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, agressivlikning oldini olish va uni kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** agressivlik, agressiv xulq-atvor, frustratsiya, ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, stress, emotsional zo'riqish, psixologik omillar, biologik omillar, profilaktika.

**KIRISH**

Agressivlik inson xulq-atvorining murakkab va ko'p omilli ko'rinishlaridan biri bo'lib, u boshqalarga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan harakat, so'z yoki munosabatlarda namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida agressivlik turlicha talqin qilinadi. Jumladan, Zigmund Freyd agressiyani insondagi tug'ma instinkt sifatida izohlagan bo'lsa, Albert Bandura uni ijtimoiy o'rganish jarayoni natijasi deb hisoblagan. Bu qarashlar agressivlikning biologik va ijtimoiy ildizlari mavjudligini ko'rsatadi. Biologik omillar agressivlikning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Asab tizimining xususiyatlari, temperament turi, gormonal o'zgarishlar, ayniqsa o'smirlik davridagi fiziologik jarayonlar shaxsning hissiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Ayrim hollarda markaziy asab tizimidagi funksional buzilishlar yoki irsiy moyillik ham agressiv reaksiyalarni kuchaytirishi mumkin. Biroq biologik omillar agressivlikning yagona sababi emas, ular ko'pincha ijtimoiy sharoit bilan o'zaro ta'sirda namoyon bo'ladi. Psixologik omillar orasida frustratsiya, o'zini past baholash, ichki ziddiyatlar, nazorat qilinmagan hissiyotlar alohida o'rin tutadi. Inson o'z ehtiyoj va maqsadlariga erisha olmaganda, adolatsizlikni his qilganda yoki o'zini himoyasiz sezganda agressiv reaksiya paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek, bolalik davrida mehr yetishmasligi, doimiy tanqid va jazolash, shaxsiy fikrni inkor etish kabi holatlar bolada himoya mexanizmi sifatida agressivlikni shakllantiradi.

Ijtimoiy omillar ham agressivlikning yuzaga kelishida katta ahamiyatga ega. Oiladagi nizoli muhit, ota-onalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, zo'ravonlik, beparvolik yoki haddan tashqari qattiqqo'llik bola xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bola ko'rganini takrorlaydi, ya'ni agressiv modelni kuzatgan holda uni o'zlashtiradi. Tengdoshlar guruhi, maktab muhiti va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik

ham agressivlikni kuchaytiruvchi omillardan hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida zo‘ravonlik sahnalarining ko‘pligi ham yoshlar ongiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Stress va doimiy emotsional zo‘riqish ham agressivlikning muhim sabablaridan biridir. Uzoq davom etgan ruhiy bosim, o‘qishdagi muvaffaqiyatsizlik, oilaviy muammolar yoki ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari shaxsda asabiylik va jahldorlikni kuchaytiradi. Agar shaxs o‘z hissiyotlarini konstruktiv yo‘l bilan ifoda etishni bilmasa, bu agressiv xatti-harakatlarga olib keladi.

Agressivlikning oldini olishda eng avvalo sog‘lom oilaviy muhit yaratish, bolaga mehr va e‘tibor berish, uning fikrini hurmat qilish muhimdir. Maktab va oila hamkorligida emotsional intellektni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tinch yo‘l bilan hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Psixologik treninglar, individual suhbatlar va profilaktik tadbirlar agressiv xulq-atvorni kamaytirishda samarali vosita bo‘la oladi. Shuningdek, ijobiy namuna ko‘rsatish, sport va ijodiy faoliyatga jalb etish ham agressiyani konstruktiv yo‘nalishga burishga yordam beradi.

Agressivlik ko‘p omilli hodisa bo‘lib, uning kelib chiqishida biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro uyg‘unlikda ta‘sir ko‘rsatadi. Uni bartaraf etish yoki kamaytirish uchun shaxsga kompleks yondashuv zarur bo‘lib, oila, ta‘lim muassasasi va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Agressivlik – bu boshqalarga yoki o‘ziga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar va xatti-harakatlarda ifodalangan shaxsiy xususiyatdir. Dushmanlik, jismoniy shikastlanish, haqorat qilish bilan namoyon bo‘ladi. Agressiv odamlar asabiy, ta‘sirchanlikni kechiradilar. Tashxis klinik usullar bilan, shaxsning psixodagnostik anketalari, proektiv testlar yordamida amalga oshiriladi.

Agressivlikni kamaytirish uchun psixoanaliz, kognitiv-xulq-atvorli psixoterapiya, avtotrening va dori-darmonlar bilan tuzatish qo‘llaniladi. Amaliy nuqtai nazardan, tajovuzkorlik insonning tug‘ma emas, balki ijtimoiy o‘zaro ta‘sir jarayonida orttirilgan tajovuzkor xatti-harakatlarga tayyorgarligining kuchayishi sifatida qaraladi. Sifat xususiyatlariga ko‘ra, tajovuzkorlik konstruktiv va buzg‘unchi o‘rtasida farqlanadi. Birinchisi, mudofaa harakatlarida, qasddan zarar yetkazishda amalga oshiriladi, ijtimoiy moslashishga, to‘siqlarni yengib o‘tishga va yetakchilikka imkon beradi. Ikkinchisi, boshqasiga jismoniy yoki ruhiy azob-uqubatlarni keltirish niyatiga asoslangan konstruktiv bo‘lmagan tajovuzkor harakatlar bilan ifodalanadi. Yo‘nalish nuqtai nazaridan, tajovuzkorlik boshqalarga va o‘ziga qaratilgan. Shunga ko‘ra, getero-agressiv – haqorat, kaltaklash, so‘kinish va o‘z-o‘ziga zarar yetkazish yoki avto-agressiv reaksiyalar ajralib turadi. Avto-agressiyaning ekstremal versiyasi o‘z joniga qasd qilishga urinishdir. Eng aniq dushmanlik harakati boshqa shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishdir.

Boshqa mumkin bo'lgan variantlar – dushmanlik, yovuzlik, negativizm, qo'zg'alish, xafagarchilik, shubha, tahdid. O'z-o'zini boshqaradigan tajovuz aybdorlik va o'zini kamsitish hissi bilan birga keladi. Agressivlikning shaxsiy xususiyat sifatida shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, unda ko'plab omillar ishtirok etadi. Dushmanlik xulq-atvori oila, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalarining ta'siri ostida asta-sekin shakllanadi. Bolalar tajovuzkorlikni kuzatish va sinab ko'rish orqali o'rganadilar: ular nafrat va dushmanlik qanday namoyon bo'lishini ko'radilar, bu nimaga olib kelishini baholaydilar, olgan bilimlarini amalda qo'llaydilar. Agar tajovuzkor harakatlar tajribasi ijobiy bo'lsa, ular xarakterda mustahkamlanadi. Voyaga yetgan odamning tajovuzkorligining sabablari ijtimoiy-psixologik omillar, ruhiy kasalliklar, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar bilan zaharlanish holatlari hisoblanadi. Samarali dushmanlik sizning maqsadlaringizga erishishga, shaxsiy chegaralarni, o'z e'tiqodlaringizni himoya qilishga imkon beradi. Bu ko'pchilikka xos bo'lgan nohaqlikka qarshi xususiyatdir. Agressivlikning zo'ravonligi va chastotasi individual xususiyatlarga, masalan, temperament va xarakterga, shuningdek, ijtimoiy-madaniy sharoitlarga, tasodifiy vaziyat ta'siriga bog'liq.

Antisotsial psixopatiyasi bo'lgan odamlarda axloqiy nuqsonlar mavjud, ular hurmat, hamdardlik va muhabbatni his qilmaydilar, shuning uchun ular aybsiz tajovuzkorlik ko'rsatadilar. Inson agressiyasi ko'rinishlarining turli-tuman va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur xulq-atvorni o'rganishda D.Bass tomonidan taklif etilgan konseptual ramkalar bilan chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo'ldi. Uning fikricha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy Verbal, aktiv-passiv va to'g'ri-egri.

Ularning kombinatsiyalari sakkizta ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib, ko'plab agressiv harakatlarni ular asosida tushuntirish mumkin. Masalan, bir kishining ikkinchisi ustidan otib, pichoqlab yoki kaltaklab zo'ravonlik qilishi ham jismoniy, ham aktiv, ham to'g'ri shkala sifatida kvalifikatsiyalanishi mumkin. Afsuski, ayrim oilalarda o'z otasi yoki onasining mehr-oqibatidan bebahra o'sayotgan bolalar ham yo'q emas. Ba'zi oilalarda esa ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy psixologik iqlimda emasligi achinarli holdir, albatta.

Aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyaga chaqirishda g'amxo'rlik, mehribonlik, sabr-toqat, mehr kabi xislatlar bilan yondashish o'rniga, kuch bilan, ayniqsa jismoniy jazo usuli bilan ta'sir o'tkazadilar. O'z navbatida bu kabi xatti-harakatlar bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga zamin bo'ladi. Tadqiqot jarayonida maktab o'quvchilarida agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishi va uni bartaraf etish mexanizmlari haqida fikrlar tahlil qilindi. Маерс Д. ning "Изучаем социальную психологию" nomli o'quv qo'llanmasi metodologik manba bo'lib belgilandi. Shu bilan birga Sh.M. Mirziyoyevning asarlaridan keng foydalanildi.

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Bir qator psixologlarning ta'kidlashicha, oiladagi iqlim, ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillar, aka-ukalar bilan yaqinlik darajasi, farzand tomonidan qilingan noto'g'ri, yanglish xatti harakatlarga nisbatan ota-onaning agressiv reaksiyasi - oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti-harakatlarini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar hisoblanadi. Maktab o'quvchilari orasida agressiv hulq-atvorning bartaraf etishda, avvalo shu narsa ko'zga tashlanadiki har qanday holatda ham bolalarni be'etibor qoldirish kerak emas, ayniqsa maktab o'quvchilarini, o'smir yoshlarni, chunki ular huddi endi o'sib kelayotgan novda kabidir. Uni qaysi tomonga shakllantirsa shunday shakllanib boradi.

### XULOSA

O'quvchilarda agressiv hulq-atvorni yo'qotish yoki oldini olishdagi birinchi mexanizm bu ota-onan va maktab va o'qituvchi orasidagi to'g'ri yo'lga qo'yilgan aloqalar mexanizmidir. Bu mexanizm yo'lga qo'yilsa bolalar hech bir vaqt o'zlari be'etibor qolishmaydi. Keyingi mexanizm bu – sog'lom muhit mexanizmi. Bunda oiladagi muhit sog'lom bo'lishi kerak, bolalar bo'sh vaqtida nima bilan band, o'rtoqlari kim, vaqtini kim bilan nimga sarflayabdi, internetdan nimalar uchun foydalanyabdi kabi savollarga oilad faqatgina sog'lom muhit tarsi mavjud bo'lgandagina otalarimiz javob topa olishadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468474 P.
2. Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
3. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.
4. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xalidning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
5. Ziyonet